QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i10.002

MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING TURKISTON TA’LIM TIZIMIGA TA’SIRI XUSUSIDA (Sirdaryo viloyati misolida)

Majidov Anvar Sirajovich *– Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*
E-mail: anvarmajidov510@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston o‘lkasi ta’lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlar Sirdaryo viloyati misolida tahlil qilinadi. Unda mustamlaka ma’muriyatining ta’lim sohasidagi siyosati, viloyatda rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi, an’anaviy maktab va madrasalar faoliyati hamda mahalliy aholi ta’lim olish imkoniyatlarining mustamlakachi ma’muriyat tomonidan cheklab qo‘yilishiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, viloyatda mustamlaka sharoitida ta’lim muassasalari faoliyati, o‘quv jarayoni, ta’lim mazmuni hamda uning mahalliy aholi ma’rifiy hayotiga ta’siri arxiv hujjatlari va bir qancha ilmiy adabiyotlar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari Sirdaryo viloyati ta’lim tizimining tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Rossiya imperiyasi, O‘rta Osiyo, Sirdaryo viloyati, rus-tuzem maktablari, jadid maktablari, gimnaziya, K.P. fon Kaufman, «Туркестанские ведомости», Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand.

Аннотация. В данной статье автор анализирует изменения, на примере Сырдарьинской области произошедшие в системе образования Туркестанского края в период колониализма Российской империи. В ней уделяется особое внимание политике колониальной администрации в области образования, появление русско-туземных школ, деятельности традиционных школ и медресе, а также ограничению колониальной администрацией возможностей получения образования местным населениям. Также на основе архивных документов и ряда научной литературы освещается деятельность образовательных учреждений в колониальных условиях, учебный процесс, содержание образования и его влияние на просветительскую жизнь местного населения. Результаты исследования служат раскрытию особенностей исторического развития системы образования Сырдарьинской области.

Ключевые слова: Российская империя, Средняя Азия, Сырдарьинская область, русско-туземные школы, джадидские школы, гимназия, К.П. фон Кауфман, «Туркестанские ведомости», Ташкент, Фергана, Самарканд.

Annotation. In this article, the author analyzes the changes that occurred in the education system of the Turkestan region during the period of Russian Empire colonialism,

using the Syrdarya region as an example. It pays special attention to the colonial administration's policy in the field of education, the emergence of Russian-Tuzem schools, the activities of traditional schools and madrasas, and the colonial administration's restriction of educational opportunities for the local population. Also, based on archival documents and several scientific literature, the activities of educational institutions under colonial conditions, the educational process, the content of education, and its impact on the educational life of the local population are highlighted. The research results serve to reveal the features of the historical development of the education system in the Syrdarya region.

Keywords: Russian Empire, Central Asia, Syrdarya region, Russian-native schools, Jadid schools, gymnasium, K.P. von Kaufman, “Туркестанские ведомости”, Tashkent, Fergana, Samarkand.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bizga ma’lumki,O‘rta Osiyo hududi Rossiya imperiyasi ta’siriga tushgandan so‘ng mustamlaka siyosati ayniqsa ijtimoiy sohada chuqur iz qoldirdi. Ko‘plab tadqiqotlarda o‘lkada siyosiy va iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishi natijasida XIX asr oxiri–XX asr boshlarida jamiyatning yangi ijtimoiy tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan birga mintaqa aholisining ijtimoiy munosabatlari, diniy qarashlari, psixologiyasi, xarakter va xususiyatlari hamda kundalik hayotiga oid qiziqarli materiallar mavjud.

Hozirgi kunda respublikamizda Turkistonning Rossiya imperiyasi hukmronligi davridagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarixini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Ana shu jihatdan o‘lkada tashkil etilgan dastlabki harbiy-ma’muriy birliklardan biri sanalgan Sirdaryo viloyatining ushbu tarixiy jarayonlarda tabiiy-geografik joylashuviga ko‘ra o‘ziga xos va farqli xususiyatli tomonlarini tadqiq etish ahamiyatli sanaladi. Zero, “Vatanimiz hududida mavjud bo‘lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g‘alaba yoki mag‘lubiyat bo‘ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo‘ladimi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o‘tgan murakkab tarixiy yo‘lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o‘rganishimiz zarur”[1:288].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sirdaryo viloyatidagi ta’lim ishlari xususida amerikalik diplomat Yu.Skaylerning qayd etishicha, “...Umuman butun O‘rta Osiyodagi kabi Toshkentdagi ta’lim ham diniy shaklda. ....Maktablar ikki xil: maktab yoki boshlang‘ich maktab. Odatda bu yerdagilar ham masjidga boradilar. Madrasada oliy diniy ta’lim va huquqiy darslar o‘qitilib, Toshkentda ularning soni o‘n yettita bo‘lib, eng yirik oltitasi ancha shuhrat qozongan. Mazkur madrasalardan biri Ko‘kaldosh taxminan 450 yil muqaddam tashkil etilgan. Baroqxon madrasasi esa 320 yil avval tashkil etilgan bo‘lib, 100 ta talabasi bor. To‘rt yuz yil burun qurilgan Beklarbegi madrasasi eng yirik va boyi sanaladi. U tegirmonlaru yer-mulklardan tashqari, ko‘plab do‘kon va uy-joylarga ega bo‘lib, 200 ta talabaga homiylik qiladi. Maktablarning muallimlariga o‘quvchilarning ota-onalari ixtiyoriy haq to‘lab, u yiliga yigirmadan qirq kopeekkacha va yilda ikki marta nishonlanadigan bayram – Ramazon va Qurbon hayitlari arafasi alohida sovg‘a va to‘n berishdan iborat”[9:124].

O‘lka general-gubernatori fon Kaufman Turkistonda ta’limni rivojlantirishni, rus millati va mahalliy xalqlar farzandlari birga ta’lim olishi nazarda tutilgan “rus-tuzem” maktablari tashkil qilinishini tarafdori sifatida ish yuritdi. O‘z direktivalarida u tarbiya asosida, “….diniy tafovut emas, balki pravoslav hamda musulmon farzandlarini Rossiyaning bir-biriga o‘xshash fuqarolari qilishga ko‘maklashuvchi bir xil va aynan qoidalar” turishi lozimligini zo‘r berib uqtirdi[3:5].

Ma’lumki, rus-tuzem maktablariga o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash uchun 1879-yilda Toshkentda maxsus O‘qituvchilar seminariyasi tashkil qilindi. Ammo maktablarning ahvoli uzoq vaqtlargacha achinarli ahvolda qoldi va faqat XIX asrning 80–90-yillarida ma’muriy tuzilmalar va davlat muassasalarining byurokratik ta’minotiga tilmochlar, mayda xizmatchilar zarurligi, xizmatlarga keskin ehtiyoj sezilganligi tufayli biroz siljish kuzatildi.

Ko‘chirish siyosati davrida Turkiston ma’muriyati ta’lim, ko‘chma posyolkalarda maktablar qurishga e’tibor qaratgan. 1907-yilda Avliyoota uyezdi boshlig‘ining Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga bergan hisobotida qishloq joylarda maktab ta’limi tizimini isloh qilish zarurligi haqida yozilgan. Rasmiyning ta’kidlashicha, rus qishloqlarida yoshlar maktabni tugatgandan so‘ng savodxonlikni unutib, tarqatib yuborilgan. Uning fikricha, bu aholining harakatsizligi, kutubxonalar va savodxonlikning yo‘qligi, spirtli ichimliklarni suiste’mol qilishning natijasi edi[10:30]. Viloyatning nemis qishloqlarida ta’lim boshqa tizim asosida qurilgan va yaxshi natijalarga erishgan.

Yevropa aholisi uchun mo‘ljallangan ta’lim muassasalari tarmog‘i davlat va xususiy bilim yurtlari, cherkov-maktablardan tashkil topgan. Ammo imperiyaning ta’lim siyosatida yangi kelgan aholini o‘qitish asosiy o‘rin egallardi. XIX asrda maktablar faqat masjidlar qoshida emas, balki maktabdorlar tomonidan ham tashkil etilgan edi. Imperiya hukumati statistik ma’lumotlariga ko‘ra, XIX asr 80-yillarida Turkiston o‘lkasining Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida 5 mingdan kam bo‘lmagan musulmon maktablari bo‘lib, ularda 46 ming atrofida o‘quvchilar tahsil olgan. Ushbu maktablarning katta qismi o‘zbek va tojik millati vakillari istiqomat qiluvchi hududlarda bo‘lgan[6:26].

Jumladan, XX asr boshida Munavvarqori Toshkentda o‘z hovlisida maktab ochadi. Ma’rifatparvarning “Namuna” maktabi o‘lkada juda mashhur bo‘lib ketadi. Shu tariqa yangi usul maktablari butun Turkiston bo‘ylab yoyiladi. Bundan podsho imperiya ma’muriyati tashvishga tushadi. Chunki uning talabalari podsho Rossiyasi mustamlakachilik siyosatini fosh qiluvchi yangi siyosiy kuchga aylanmoqda edi[2:291].

Bu davrda yana ayollar ta’lim muassasalariga talab ortib bordi. Bu jarayon Rossiya imperiyasining, uning chekka hududlarining, shu jumladan dasht o‘lkasi va Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq. Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi nafaqat yozish va hisoblashda boshlang‘ich bilimlarni, balki yuqori, professional darajadagi ko‘nikmalarni ham talab qildi. Vaziyat o‘zgarishi munosabati bilan, masalan Toshkentda o‘rta xotin-qizlar ta’lim muassasalarining yetishmasligi kuzatildi. 1910-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, 300 kishiga mo‘ljallangan qizlar gimnaziyasida 700 qiz o‘qigan[10:30]. Shu munosabat bilan 1913-yilda ikkinchi ayollar gimnaziyasi ochildi.

Qayd etish lozimki, Rossiyada ayollar uchun professional ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, asosan tijorat, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va pedagogik ta’lim

muassasalari xizmat ko‘rsatgan. Biroq, cho‘l hududi va Turkistonning o‘ziga xos xususiyati talabalar tarkibi o‘rtasidagi farq edi. Xususan, Semipalatinsk va Sirdaryo viloyatlaridagi o‘qituvchilar seminariyalarida, Akmola viloyatidagi feldsherlik va veterinariya-feldsherlik maktablarida faqat o‘g‘il bolalar tahsil olishgan. Biroq, qizlar Kaspiy va Sirdaryo viloyatlaridagi temiryo‘l maktablarining o‘quvchilari bo‘lib, o‘g‘il bolalar bilan nisbati 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan. Qizlar tijorat maktablarida o‘g‘il bolalar bilan bir qatorda, masalan Farg‘ona viloyatida 1910-yilda 151 o‘g‘il va 141 qiz tijorat sinflarida, 1912-yilda 235 o‘g‘il va 148 qiz, Sirdaryo viloyatida 1913-yilda 473 o‘g‘il va 40 qiz o‘qishgan[10:31-32].

Imperiya hukumati xalq maorifini rivojlantirishni xayoliga ham keltirmay, maktab va madrasalarni mablag‘ bilan yetarlicha ta’minlamadi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, Turkiston general-gubernatorligi byudjetining faqat bir foizigina maorifga ajratilgan[4:217]. Uning ham 74 foizi rus maktablarini, 26 foizi rus-tuzem maktablarini ta’minlashga sarflandi. Faqatgina milliy burjuaziya va jadidlarning ko‘magi bilan maktab va madrasalar ta’minlanib turildi. Shuningdek, ota-onalarning ko‘rsatgan moddiy yordami ham muhim ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlash muhim. Imperiya hukumati maktab va madrasalarni o‘rta asr qoloqligida saqlashga harakat qilib, ularni qattiq nazorat ostida ushlab turdi. 1905-yilda Turkiston general-gubernatorligining ma’muriy markazi Toshkent shahrida nashr qilingan “Туркестанские ведомости” gazetasida shunday jumlalar yozilgan edi, “...Rus-tuzem maktablarining asosiy maqsadi shundan iboratki, Turkistondagi har bir musulmon iloji bo‘lsa, faqat ruscha so‘zlashsin va hattoki ruscha fikrlasin”[5:26-27].

Masalaning yana bir jihati shundaki, Rossiya imperiyasi Turkistonni mustamlakaga aylantirish va ruslashtirish jarayonida mahalliy xalqlarga nisbatan kamsituvchilik siyosatini olib borgan, o‘zbek va boshqa tub aholiga siyosiy va insoniy huquqlarni berishni xayoliga ham keltirmagan. Bu g‘oya ma’murlarning O‘rta Osiyodagi strategik rejalarining asosini tashkil qilgan[8:97]. Bundan ko‘zlangan maqsad, o‘lkada mavjud bo‘lgan ijtimoiy hayot qonunlari va an’analarini izdan chiqarish, mahalliy jamiyatning diniy-ma’naviy negizini barbod qilish, milliy madaniyat va ta’limni obro‘sizlantirish va sekin-asta betaraflashtirish, pirovard natijada “yangi, rus Turkistoni”ni barpo etishni nazarda tutuvchi mustamlakachilik an’analarini zo‘ravonlik bilan singdirishga qaratilganligini ko‘rsatadi. Sirdaryo viloyati Turkiston mintaqasining talay qismini o‘z ichiga olgan bo‘lib, Toshkent uyezdi – 40380, Chimkent – 100808, Avliyoota – 68018, Perovskiy – 95965, Kazalinsk –59550, Amudaryo bo‘limi–94080 kv.m. joyni o‘z ichiga olgan va 1913-yilgi ma’lumotga ko‘ra, viloyat aholisi bu paytga kelib 2.097,896 kishini tashkil etgan[7:6] bo‘lsa ham, podsho imperiyasining yarim asrdan ortiq hukmronligi davrida hukumat tomonidan mahalliy aholi uchun birorta zamonaviy milliy maktab, o‘rta va oliy o‘quv yurti ochilmadi.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, imperiyaning mintaqa rusiy zabon aholisi uchun mo‘ljallangan ta’lim muassasalari tarmog‘i davlat va xususiy bilim yurtlari, cherkov-maktablardan iborat bo‘lgan. Ammo, imperiyaning ta’lim siyosatida yangi kelgan aholini o‘qitish asosiy o‘rin egallagan. XIX asr 80-yillariga kelib Sirdaryo viloyatida xalq ta’limining faoliyati ikki yo‘nalishda: rus bilim yurtlarida yuritilayotgan ta’lim va o‘z navbatida mahalliy maktab va madrasalarda

olib borilgan. Mintaqada XIX asrning oxirlarida faoliyat yuritayotgan o‘quv yurtlarining yarmidan ko‘pi Toshkent shahri hisobiga to‘g‘ri kelgan.

Imperiya mustamlakachiligi sharoitida o‘lkaning Sirdaryo viloyatida ta’lim tizimi ma’muriy-siyosiy manfaatlar ta’sirida rivojlandi. Rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi ta’lim jarayoniga yangi o‘quv usullarining kirib kelishiga zamin yaratgan bo‘lsa, an’anaviy maktab va madrasalar faoliyati hamda mahalliy aholining ta’lim olish imkoniyatlari mustamlaka siyosati bilan chambarchas bog‘liq edi. Shu bois, Sirdaryo viloyatidagi ta’lim jarayonlarini o‘rganish mustamlakachilik siyosatining ijtimoiy-madaniy oqibatlarini hamda mintaqadagi ma’rifiy o‘zgarishlar xususiyatlarini tarixiy jihatdan anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 288.

2. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: “Университет”, 2007. – Б. 291.

3. Граменицкий О.Очерки о развитии народного образования в Туркестанском крае. – Ташкент, 1896. – С. 5.

4. Зиёев Ҳ. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси (Тарихнинг долзарб масалалари). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 217.

5. Камолиддин Ш.С. Марказий Осиё тарихи замонавий тарихшунослигидаги ёндашувлар. – Тошкент: “Fan ziyosi”, 2023. – Б. 26-27.

6. Қодиров Н.Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи (1867–1917 йй).: Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 2011. – Б. 26.

7. Обзор Сырдарьинской области за 1913 г. – Ташкент, 1916. – С. 6.

8. Саифназаров И., Эрназаров Д.З., Усмонов Ф.Л. Туркистон халқларининг миллий ўзлигини англашда жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий ва фалсафий жиҳатлари // Халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2021 йил 25 ноябрь). – Тошкент: “ИҚТИСОДИЁТ”, 2021. – Б. 97.

9. Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари (инглиз тилидан З.А.Саидбобоев тарж. остида). – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б. 124.

10. Хайназаров Б.Б. Каспийорти вилоятида туб бўлмаган аҳоли эҳтиёжлари учун таълим тизимининг жорий этилиши тарихидан (XIX аср охири–XX аср бошлари) //SCIENCEPROBLEMS. UZ-Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – № 7(3). 2023. – B. 30-32.